

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING INTELLEKTUAL QOBILYATLARINI KLASTERLI YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Ximmataliev Do'stnazar Omonovich

Pedagogika fanlari doktori, professor

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Ernazarova Munisxon Jo'raqulovna

Toshkent viloyati Chirchiq pedagogika instituti

Pedagogika va psixologiya yo'nalishi magistranti

Telefon: +998917793882

munisxonernazarova21@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual qobilyatlarini klasterli yondashuv asosida rivojlanishiga yo'llari, didaktik o'yinlardan foydalanish. Didaktik o'yinlarning mazmun-mohiyati va o'quvchilarni intellektual qobiliyatlarini oshirishda o'qituvchi va ota-onaning o'rni haqida ma'lumotlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, boshlang'ich sinf, ota-onsa, o'quvchi, o'qituvchi, didaktik, intellektual, interfaol, qobiliyat, texnologiya, klaster.

Intellektual salohiyatga ega insonlar – bu xalqaro andozalardagi zamonaviy taraqqiyotni ta'minlay oladigan mustaqil fikrli, malakali, bilimli, yuksak insoniy fazilatlarga ega kadrlardir. Mustaqil O'zbekistonda esa intellektual salohiyati yuqori kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgan davlat siyosatini yuritib kelinmoqda. Bu yo'lda amalga oshirilgan asosiy vazifalaridan biri mustaqil O'zbekistonni rivojlanishga asos bo'ladigan yangi ta'lim tizimining tashkil etilishidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022—2026 yillarda xalq ta'limini rivojlanish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida Farmoni¹ bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Unga ko'ra maktab o'quvchilarining bilimi va ko'nikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, o'qituvchi kasbi nufuzini va pedagoglarning sifat tarkibini oshirish, darsliklar va o'quv metodik majmualarni zamon talablari asosida takomillashtirish, xalq ta'limi muassasalarining xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy modellarini barpo etish maqsadida, shuningdek, 2022—2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.05.2022 yildagi PF-134-son

strategiyasini “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili” da amalga oshirishga oid davlat dasturi² ishlab chiqildi.

2021-yil 1-sentyabrdan ta’lim jarayoniga yangi Milliy o‘quv dasturini joriy etila boshlandi. Bu dastur darsliklarida o‘quvchilarni og‘zaki nutqini o‘stirish hamda mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchilarni intellektual qobiliyatlarini o‘stirishga xizmat qiladi. Mustaqil O‘zbekistonning kelajagi bo‘lgan bugungi kun yoshlarini intellektual salohiyatini oshirishni aynan boshlang‘ich sinflardanoq boshlash kerak. Buning uchun bizning ta’lim tizimimizda didaktik o‘yinlar va metodlar majmui borligi ayni haqiqat. Biz esa bu boradagi ishlarda ota-onha hamkorligini ham keng yo‘lga qo‘yishni taklif qilamiz. Ya’ni ta’lim tizimida o‘quvchilarining intellektual qobiliyatlarini klasterli yondashuv asosida rivojlantirish. Xo‘sish bu ishni qanday qilib samarali tashkil qilsak bo‘ladi? Bizga ma’lumki, har chorakda maktablarda va sinflarda ota-onalar yig’ilishlari o‘tkaziladi. Ota-onha hamkorligini samarali tashkil qilish uchun eng avvalo ana shu majlislarni o‘tkazish jarayonida ota-onalarni IQ darajasini tekshirib olish kerak. Bu jarayonni o‘quv yilini boshida 1-o‘n kunlikka rejalashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki o‘qituvchi o‘ziga biriktirilgan sinf o‘quvchilarining ta’lim olishida yuqori natijaga erishishni oldiga maqsad qilib qo‘yar ekan, o‘quvchini bilimlarni o‘zlashtirishdagi o‘zagagina xos bo‘lgan sifatlarini anglay olishi darkor. Farzandga ota-onadan o‘tadigan tafakkur darjasasi uning fanlarni o‘zlashtirishdagi muhim omillardan biri sanaladi. Chunki o‘quvchining IQ darajasiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadigan asosiy sabablardan biri bu irsiyatdir. Shu sababli ham ota-onalar majlisini tashkil qilish va ularning IQ darajasini aniqlab olish zarur. Quyida ota-onalarning IQ darajasini aniqlashga qaratilgan savollardan namunalar keltiramiz.

Masalan:

- Nima yengilroq : 100 kg temir yoki 100 kg paxta ?
- Ovqat qilishdan oldin qozonga nima tashlanadi?
- Och qoringa nonushtaga nechta tuxum yeyish mumkin?
- Qaysi yil atigi bir kun bo‘ladi?
- Mashina ketayotganda qaysi g‘ildiragi aylanmaydi ?
- Jo‘jani bolasi nima deyiladi ?
- Avtobusdan tushishdan oldin nima qilish kerak ?
- Qora mushuk uyga qachon oson kiradi ?
- Alisher Navoiy Amur Temurga qaysi tilda xat yozgan ?
- Mendagi pul Sardornikiga qaraganda 5 ming so‘m ko‘p. Agar menda 20 ming so‘m pul bo‘lsa, Sardorning qancha puli bor?

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.05.2022 yildagi PF-134-son

-Tasavvur qiling, siz fermersiz va fermada jonzotlarni oziqlantirayapsiz. Fermadagi 5 ta sigirning har biriga 2 bog‘dan, 8 ta qo‘yning har biriga 1 bog‘dan va 2 ta ho‘kizning har biriga 3 bog‘dan pichan berdingiz. Topshiriq: Ushbu fermerning ismini aniqlang.

Bu kabi tezkor savol-javob orqali ota yoki onadagi qobiliyat darajasini aniqlangandan so‘ng, bu qobiliyat farzandga qay darajada o‘tganligi tekshirib chiqish mumkin bo‘ladi. Chunki olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarning aksariyati IQ darajasi ko‘p jihatdan irsiy genlarga bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. IQ ko‘rsatkichlariga ta’sir qiluvchi yana bir sabab - individual genlar (oddiy odamning miya faoliyati taxminan 17 000 genga bog‘liq). Individual genlar shaxsning mavjud IQ darajasiga ma’lum darajada ta’sir qiladi. IQ darajasiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan uchinchi sabab - bu atrof-muhit. Albatta, inson atrofidagi hamma narsa (ayniqsa, oila) uning rivojlanishiga ta’sir qiladi. Tadqiqotlar jarayonida bunday qaramlikning ko‘plab omillari aniqlangan. Ular oilaning daromadi, uyning kattaligi va uning narxi, barcha oila a’zolari o‘rtasidagi rivojlanayotgan munosabatlar va boshqalarni o‘z ichiga olgan.

Tadqiqotchilarining fikricha, intellektning rivojlanishi inson faoliyatining barcha turlariga ta’sir qiladi, lekin insonning intelektual qobiliyati darajasi tanlangan faoliyat sohasiga qarab farqlanadi.

Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning IQ darajasini oshirish maqsadida yosh hususiyatlari, savodxonlik darajalari, shaxsiy tabiatlariga ko‘ra didaktik o‘yinlar orqali evristik suhabatlar loyihalashtirish asosidagi metodlardan keng foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi. Agar o‘qitish jarayonida har bir o‘quvchi o‘zining o‘zlashtirish imkoniyati darajasida topshiriqlar olib ishlasa u yuqori sifat va samaradorlikni erishgan bo‘lar edi.

Ta’lim jarayonlarini didaktik o‘yinlar orqali amalga oshirilganda interfaol o‘yinli metodlar o‘quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan bo‘ladi. Ular o‘quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish va rivojlanishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga egadir. Shu o‘rinda interfaol o‘yinlarning asosiy turlariga to‘xtalib o‘tsak: interfaol o‘yinlarning asosiy turlari- intellekual (aqlii) va harakatli hamda aralash o‘yinlardan iborat. Bular o‘quvchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, ma’naviy, ma’rifiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik, bunyodkorlik, mehnat, kasbiy ko‘nikmalarni rivojlanishiga yordam beradi. Bu metodlar o‘quvchini ichki imkoniyatlarini ishga tushishiga, o‘ylashga, erkin fikr yuritishga, muloqotga, ijodkorlikga yetaklaydi. Ayniqla, o‘quvchida atrof -muhit, hayotni bilishga qiziqish ortadi, uchragan qiyinchilik, to‘silqlarni qanday yengish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari shakllanadi.

Ta’lim - tarbiya jarayonida asosan o‘quvchilarda ta’lim olish motivlarini, ularni turi yo’lanishlardagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan, biror kasbga moyilliklarini ko‘rsatadigan, interfaollikkka asoslangan didaktik o‘yinlardan

foydalanish maqsadga muvofiqdir. Interfaol o'yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, rolli, ishchanlik va boshqa yo'nalishdagi turlarga ajratiladi. Ular o'quvchilarda tahlil qilish, hisoblash, o'lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qaabul qilish, guruh yoki mustaqil jamoa tarkibida ishslash, nutq o'stirish, til o'rgatish yangi bilimlar olish faoliyatlarini rivojlantiradi. Interfaol o'yin turlarini tanlashda quyidagi mezonlarga rioya qilish yaxshi natijalar beradi. -ishtirokchilarni tarkibi bo'yicha, ya'ni o'g'il bolalar, qiz bolalar yoki arlash guruhlar uchun o'yinlar :-ishtirokchilarning soni bo'yicha - yakka, juftlikda, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi, sinflararo va ommaviy tarzdagi o'yinlar:

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida "Tushunchalar tahlili", "Charxpalak", "Zinama-zina" singari metodlar bilan bir qatorda "o'zim tekshiraman", "Bo'lishi mumkin emas", "ortiqchasini top", "Juftini top" singari didaktik o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

"Tushunchalar tahlili", "Charxpalak", "Zinama-zina" metodlarida boshlang'ich sinflarda o'tiladigan barcha o'quv fanlarida foydalanish mumkin. Ushbu metodlardan dars jarayonida foydalanilganida juftlikda yoki kichik guruhlarda ishslash mumkin bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda o'qituvchi nafaqat interfaol metodlar va didaktik o'yinlardan foydalanishi balki o'qish ,o'zlashtirish jarayoniga ota-onalarni ham jalb qila olishi ta'lim sifatini oshishiga olib keladigan omillardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'oziyev. E Jabborova. A "Faoliyat va xulq-atvor motivatsiyasi" T. 2003y
2. Bo'tayeva. H "Boshlangich sinf o'quvchilarida aqliy taraqqiyot shakllanishining psixologik xususiyatlari" References
1. Goziyev. E Jabborova. A "Motivation for activity and behavior" T. 2003y
2. Botayeva. H "Psychological features of the formation of mental development in primary school students""Science and Education" Scientific JournalJune 2021 / Volume 2 Issue 6www.openscience.uz483